ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 406 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

Использование подходов геймификации при обучении иностранному языку детей 5-6 лет 250
Курбанова Назира Низомиддиновна

Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tiflotexnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari 257
Astanova Zumradxon Toxirovna

O'quvchilar xulq-atvoridagi og'ishish ilmiy tadqiqotlar talqini asosida 262
Azimjonova Rushana Rashid qizi

Образ сильной узбекской женщины в творчестве Зульфии 267
Аскарова Наргиза Абдивалиевна, Усманова Самира Зафаровна

Inklyuziv guruhlarda differensiallashtirilgan yozma topshiriqlar tizimini loyihalash tamoyillari 271
D. X. Saydazimova

Maktabgacha ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish va tarbiyachining kreativ kompetentligini oshirish metodlari 275
Odilova Sitora Ergash qizi

Milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini notiqlik faoliyati orqali rivojlantirish 281
Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi

Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish modeli 286
Magzumova Lola Turakulovna

Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda seldan foydalanishga tayyorlash muammosining ijtimoiy va metodik qatlamlari 292
Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi

Ichki ishlar xodimlarida koping-strategiyani shakllantirish kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli ta'minlovchi omil sifatida 296
Aliboyev Himaydin Fayzulla o'g'li

Psixologik holatni baholash asosida differensial mashqlar orqali badmintonchilarning koordinatsion va texnik tayyorgarligini rivojlantirish 299
Beknazarov Raxat Axmet og'li

Oliy ta'limda biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik asoslari 302
Jumabayeva Aygul Kuatovna, Ametov Yakub Idrisovich

Dialogik nutq o'qitish metodikasining shakllanishi 307
Xamidullayeva Fotima Adxam qizi

Алгоритм развития управленческой компетентности будущих учителей русского языка и литературы на основе обратной связи и коррекции педагогических решений 313
Акмалова Дилдора Тохировна

Эффективные методы развития икт-компетентности педагогов в цифровой образовательной среде ... 319
Каримова Наргизахон Яхёевна

Qadimgi Misr va Gretsiya olimlarining muhandislik grafikasi fani yuzasidan izlanishlari 322
Ergasheva Shohista Anvar qizi

Предметно-языковые задания на уроках русского языка в начальной школе Узбекистана 324
Худжамова Хуснора Диёр кизи

Musiqa ta'limi dars mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari 329
Tuxtasinov Abror Rustamovich

Developing Creative Competence During Pedagogical Practice: an Integrated Model for Future English Language Teachers 332
Mukhtorov Mukhiddin Mansur o'g'li

AI-generatsiyalanuvchi adaptiv testlar orqali talabalarning bilim darajasini diagnostika qilish metodikasini takomillashtirish 338
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Habibullayeva Jamilaxon Ne'mat qizi

Aniq fanlarni o'qitishda o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishning didaktik modeli va vositalari 343
Saidov Utkirjon Mallayevich, Abdurashidova Munira Abdumumin qizi

Muammoli vaziyatlar va keys-stadi asosida bo'lajak pedagoglarning tanqidiy-analitik tafakkurini rivojlantirish metodikasi 348
Kubayeva Maxbuba Raxmatulayevna

Badiiy asarlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tafakkuri va ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 352
Uvaydiloyeva Zarrina Olimovna, Abdullayeva Nazokat Isayevna

Sport psixologining kasbiy kompetentligini tadqiq etishning zamonaviy yo'nalishlari va metodologik muammolari 357
Rasulov Zokir Pardayevich

Научно-теоретические основы совершенствования самостоятельного обучения студентов педагогических вузов в процессе изучения микробиологии 363
Нарзуллаева Ирода Уктам кизи, Каландарова Мадина Андрей кизи

Tarixiy manbalar asosida talabalarda tarixiy tafakkur va tarixiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 368
Ne'matullayev Shohjahon G'aybulla o'g'li

Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari 378
Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi

Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari 378
Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari 382
Hazratqulova Aziza Rustam qizi, Ashurov Abror Uralovich

Sog'lom turmush tarzidagi qizlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish mexanizmlari 389
Tashpulatova Dono Ergashevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Xorij va milliy pedagogika tadqiqotlarida metakognitiv kompetensiya tushunchasi tahlili 395
Feruza Xasanova, Assistent o'qituvchi

Talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanishning nazariy-metodologik aspektlari 402
Ibotova Dildora Shomirovna

SOG‘LOM TURMUSH TARZIDAGI QIZLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Tashpulatova Dono Ergashevna
University of Business and Science, Pedagogika 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya darslari sharoitida 7–10 yoshli qiz bolalarning jismoniy tayyorgarligini harakatli o‘yinlar vositasida takomillashtirish mexanizmlari o‘rganiladi. Jismoniy tayyorgarlik tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya, muvozanat, kuch imkoniyatlari va umumiy chidamlilikning yoshga mos birligi sifatida talqin etiladi. Xalqaro tajriba, amaldagi milliy qonunchilik va o‘yinli intervension tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilinib, diagnostika, maqsadli o‘yin tanlash, yuklamani me’yorlash, faol ijro va qayta aloqa bosqichlarini birlashtiruvchi mualliflik metodik modeli taklif etiladi. Harakatli o‘yinlarni jismoniy sifatlar bilan moslashtirish matritsasi, sakkiz haftalik amaliy mikrotsikl, pedagogik kuzatuv hamda o‘lchash protokoli ishlab chiqildi. Asosiy natijalar nazariy-metodik xarakterga ega; model samaradorligini mahalliy tajriba-sinovda tasdiqlash zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, qiz bolalar, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tayyorgarlik, harakatli o‘yin, tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya, muvozanat, chidamlilik, o‘yin texnologiyasi, differensial yondashuv, yuklamani me’yorlash, pedagogik monitoring.

Abstract: This article examines mechanisms for improving physical fitness in girls aged 7–10 through movement games within a healthy-lifestyle-oriented physical education program. Current legislation, international guidance, and recent intervention studies inform a five-component methodological model involving baseline assessment, goal-oriented game selection, individual load adjustment, active play, and feedback. A game-to-fitness mapping matrix, an eight-week implementation cycle, and observation and assessment indicators are proposed. These are conceptual and methodological results, not outcomes from a newly conducted trial. Local experimental validation remains necessary.

Key words: physical education, girls, healthy lifestyle, physical fitness, movement games, agility, speed, coordination, balance, endurance, individualized load, pedagogical monitoring.

Аннотация: В статье рассматриваются механизмы совершенствования физической подготовленности девочек 7–10 лет посредством подвижных игр в контексте здорового образа жизни. На основе анализа нормативных документов и современных интервенционных исследований предложена авторская модель из пяти взаимосвязанных компонентов: диагностика, целевой подбор игр, дозирование нагрузки, игровая деятельность и обратная связь. Разработаны матрица соответствия игр физическим качествам, пример восьминедельного цикла и показатели педагогического мониторинга. Модель имеет теоретико-методический характер и требует дальнейшей экспериментальной проверки.

Ключевые слова: физическая культура, девочки, здоровый образ жизни, физическая подготовленность, подвижные игры, координация, ловкость, быстрота, выносливость, педагогическая модель, мониторинг.

KIRISH

Jismoniy tarbiya jarayonida qiz bolalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish ikki o‘zaro bog‘liq vazifani ko‘zda tutadi: harakatni sifatli bajarish imkoniyatini kengaytirish va muntazam jismoniy faollikka ijobiy munosabatni mustahkamlash. Harakatli o‘yinlar mazkur vazifalarni tabiiy ravishda birlashtiradi, chunki bolalar yugurish, yo‘nalish almashtirish, sakrash, nishonga uloqtirish va muvozanatni saqlashni qiziqarli syujet hamda tengdoshlar bilan muloqot jarayonida bajaradi. Biroq o‘yin borligi o‘z-o‘zidan mashg‘ulotning sog‘lomlashtiruvchi natijasini kafolatlamaydi. O‘yinning pedagogik samarasi uning qaysi jismoniy sifatga qaratilgani, yuklama qanday me’yorlangani va o‘quvchilarning amaliy ishtiroki qanday kuzatilgani bilan belgilanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 5–17 yoshli bolalar va o'smirlarga hafta davomida kuniga o'rtacha kamida 60 daqiqa o'rtacha yoki yuqori intensivlikdagi jismoniy faollikni tavsiya etadi [2]. Ushbu tavsiya alohida bir darsda 60 daqiqa mashq bajarish talabi bo'lmay, maktab, oila va bo'sh vaqtdagi umumiy faollikni anglatadi. UNESCOning sifatli jismoniy tarbiya yondashuvida barcha o'quvchilar uchun moslashtiriladigan, qiziqarli, xavfsiz va inklyuziv mashg'ulot muhiti ustuvor hisoblanadi [3]. Demak, harakatli o'yinlarni tanlashda ma'lum bir qiz bolaning jismoniy tayyorgarligini yaxshilash bilan birga, uning ishtirok huquqi ham saqlanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 24-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ–1123-son[1] Qonunining 41-moddasi ta'lim oluvchilarning individual qobiliyati hamda sog'lig'i holatini hisobga olish, tibbiy nazorat va jismoniy rivojlanish monitoringini belgilaydi [1]. Bu talab o'yinlarning faqat ko'ngilochar tarkibiga emas, balki asoslangan metodik tanlov, differensial me'yorlash va natijani baholashga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Qiz bolalar uchun biror harakat turini jinsga oid stereotip asosida cheklash ilmiy-pedagogik maqsadga muvofiq emas; yuklama birinchi navbatda yosh, tayyorgarlik va sog'liq imkoniyatiga qarab moslashtiriladi.

Tadqiqotning maqsadi - 7–10 yoshli qiz bolalarning jismoniy tayyorgarligini harakatli o'yinlar orqali takomillashtirish uchun o'yin tanlash, mashg'ulotni me'yorlash, amaliy tashkil etish va baholashning o'zaro bog'liq mexanizmlarini asoslashdir.

Tadqiqot obyekti boshlang'ich sinflardagi jismoniy tarbiya jarayoni, predmeti esa jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan harakatli o'yinlar tizimi va uni boshqarishning pedagogik shart-sharoitlaridir. Asosiy g'oya shundan iboratki, o'yin mazmuni aniq harakat vazifasiga moslashtirilib, yuklama individuallashtirilsa va natija muntazam qayd etilsa, jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun tekshiriladigan metodik muhit yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jismoniy tayyorgarlik tushunchasi o'quvchining muayyan harakat vazifalarini bajarishga imkon beruvchi sifatlar majmuini qamrab oladi. Boshlang'ich maktab davrida tezkorlik, koordinatsiya, chaqqonlik, muvozanat, moslashuvchanlik, tana vazniga mos kuch va umumiy chidamlilikni bir-biridan ajratilgan sport me'yorlari sifatida emas, ko'p qirrali harakat tajribasi tarkibida rivojlantirish muhim. Masalan, "quvlashmachoq"da tezlik va yo'nalishni o'zgartirish, "nishonga yetkaz"da ko'z–qo'l koordinatsiyasi, "to'siqdan o't"da muvozanat va fazoviy orientatsiya birgalikda ishlaydi. Mashqning bunday integrativ xususiyati o'qituvchidan qaysi sifat asosiy, qaysilari yordamchi ekanini oldindan ajratib ko'rsatishni talab qiladi.

Harakatli o'yin pedagogik mexanizm sifatida qoidalar, harakat takrori, emotsional rag'bat, tengdosh bilan hamkorlik va tezkor qaror qabul qilishni birlashtiradi. Shu bilan birga, jismoniy yuklama o'yin nomidan emas, amaldagi harakat va dam olish nisbatidan kelib chiqadi. Bir xil estafeta qisqa masofa va navbatlar ko'p bo'lganda past harakat zichligiga ega bo'lishi, kichik guruh va parallel yo'laklar bilan tashkil etilganda esa o'quvchilarning faol vaqtini oshirishi mumkin. Shunday ekan, takomillashtirishning mohiyati yangi o'yin nomlarini ko'paytirishdan ko'ra ularni maqsad, sharoit va o'quvchi imkoniyati bilan moslashtirishdadir.

Onarici Gungor va hammualliflar 9–10 yoshli 120 nafar o'quvchi ishtirokidagi randomizatsiyalangan tadqiqotda 12 hafta davomida darsdan tashqari o'yinli faoliyat dasturini sinagan. Tajriba guruhida moslashuvchanlik, panja kuchi, qorin mushaklari chidamliligi, joyidan uzunlikka sakrash va 10 metrga yugurish kabi ko'rsatkichlar yaxshilangan [4]. Mazkur dalil o'yin turli jismoniy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi, ammo dastur darsdan tashqari qo'shimcha faoliyat shaklida amalga oshirilgani uchun natijani odatiy darsning o'ziga to'liq ko'chirish mumkin emas.

Van Rossum va hammualliflarning MOGBA klaster-randomizatsiyalangan tadqiqotida 8–12 yoshli 229 nafar bola qatnashgan; o'yinlarga asoslangan to'qqiz haftalik aralashuv o'yin kompetensiyasini idrok etish ko'rsatkichini yaxshilagan, biroq darsdagi jismoniy faollik va mushak tayyorgarligiga aniq ta'sir qayd etilmagan [5]. Bu natija harakatli o'yinlarning barcha jismoniy sifatlarni avtomatik rivojlantirishi haqidagi umumiy da'voni cheklaydi.

Petrušič va Novakning sakkiz-to'qqiz yoshli bolalar bilan 16 haftalik dasturi tezkorlik, moslashuvchanlik va ayrim koordinatsion vazifalarda ijobiy o'zgarishlar ko'rsatgan, boshqa bir murakkabroq koordinatsion sinovda esa shunga teng natija olinmagan [6]. Demak, natija o'yin mazmuni va baholanayotgan sifatga bog'liq.

Breed va hammualliflar qizlarning jismoniy tarbiya darslarida o'yinli Game Sense yondashuvi an'anaviy texnik o'rgatishga nisbatan harakat masofasini oshirganini aniqlagan [7].

Guijarro-Romero va hammualliflar 9–12 yoshli 203 nafar o'quvchi bilan olib borgan tadqiqotida o'yinlashtirish, maqsad qo'yish hamda faoliyatni monitoring qilish elementlari haftalik o'rtacha va yuqori intensivlikdagi faollikni yaxshilashi mumkinligini ko'rsatgan [8]. Bu ikki tadqiqot faollik darajasini oshirishni qo'llab-quvvatlaydi, biroq faollik va jismoniy tayyorgarlik bir xil natija ko'rsatkichlari emas; ularni metodik baholashda ajratish zarur.

Yıkılgan, Akkuş va Alaeddinoğluning 2026-yildagi tadqiqotida 10–12 yoshli 74 nafar qiz o'quvchi sakkiz hafta davomida an'anaviy o'yinlar dasturi nuqtayi nazaridan tekshirilgan; tajriba guruhida koordinatsiya, muvozanat va ayrim motor ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan [9].

1 https://lex.uz/uz/docs/-8093787

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar Dehqonova va hammualliflar milliy harakatli o‘yinlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yirik motor harakatlariga doir imkoniyatlarini yoritgan [10].

Sun va Chenning 12 ta randomizatsiyalangan tadqiqot hamda 1608 ishtirokchini qamrab olgan metatahlili sport o‘yinlari asosidagi aralashuvlar fundamental harakat ko‘nikmalariga kichik, ammo ijobiy umumiy ta’sir ko‘rsatganini bildiradi [11].

Mazkur manbalar birgalikda o‘yinlarni madaniy jihatdan moslashtirish va har bir jismoniy sifat bo‘yicha alohida tekshirish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyoslash, pedagogik tasniflash, tizimli modellashtirish va amaliy metodik loyihalash usullari qo‘llanildi. O‘yinlarni tasniflash mezonlari sifatida ustuvor jismoniy sifat, harakatning takrorlanish imkoniyati, yuklamani boshqarish qulayligi, xavfsizlik va barcha ishtirokchilarning faol bandligi belgilandi. O‘yinlarni muayyan sifat bilan bog‘lash konseptual moslashtirishdir; mualliflik modeli amaliy samaradorligi bo‘yicha yangi tajriba-sinov ma’lumotlari ushbu maqolada taqdim etilmaydi. Chet el tadqiqotlarining statistik ko‘rsatkichlari tegishli asl manbalardagi natijalar sifatida berildi va mahalliy o‘quvchilarga xos natija deb talqin etilmadi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Konseptual tahlil asosida jismoniy sifatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yin tanlash matritsasi ishlab chiqildi. Unda har bir o‘yin uchun ustuvor sifat, boshqariladigan parametr va pedagogik ehtiyot chorasi belgilanadi. Masalan, qisqa quvlash o‘yini chaqqonlikka yo‘naltirilganda burilish va yo‘nalish almashtirish talab qilinadi; tezkorlikka yo‘naltirilganda esa masofa qisqa, start signali ravshan va yetarli tiklanish oralig‘i bo‘lishi lozim. Xuddi shu o‘yinning boshqa qoidasi motor sifatni butunlay o‘zgartirishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘yinni nomiga qarab emas, dars maqsadiga nisbatan tanlaydi (1-jadval).

1-jadval: **Harakatli o‘yinlarning jismoniy sifatlarga yo‘naltirilgan tasnifi**

Ustuvor sifat	O‘yin misoli va harakat vazifasi	Boshqariladigan parametr
Chaqqonlik	Quvlashmachoq: belgiga yetib borish, to‘xtash, burilish.	Maydon kengligi, burilishlar soni, guruh hajmi.
Tezkorlik	Signalga qarab yugurish: qisqa masofaga tez start.	Masofa, urinish soni, tiklanish oralig‘i.
Koordinatsiya	Nishonga yetkaz: uloqtirish, ushlash, aniq uzatish.	Nishon o‘lchami, masofa, to‘p turi.
Muvozanat	Orolchalar: belgilangan tayanchlardan o‘tish.	Tayanch oralig‘i, yo‘l murakkabligi.
Umumiy chidamlilik	Rangli yo‘laklar: uzluksiz yengil harakat va navbat almashish.	Faol davr, dam olish va jadallik.

1-rasm. Harakatli o‘yinlar orqali jismoniy tayyorgarlikni boshqarish modeli



O‘yinlar banki dars mavzusiga muvofiq uzviy yangilanadi. Milliy o‘yinlarning tarbiyaviy va kommunikativ imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, ammo aniq qoidalar yosh va jismoniy holatga moslashtiriladi. Kuchli to‘qnashuv, noqulay sirpanish, nazoratsiz baland sakrash yoki uzoq muddat majburiy maksimal tezlik xavfi bo‘lgan variantlar boshlang‘ich sinf sharoitiga mos emas. O‘yin davomida kimdir faqat tomoshabin bo‘lib qoladigan “chiqarib yuborish” qoidalari o‘rniga faol qaytish, rotatsiya va sheriklik tamoyillarini qo‘llash o‘quvchilarning harakat zichligini oshiradi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy-metodik taklifi “Diagnostika – tanlash – me’yorlash – o‘yinli ijro – monitoring va moslashtirish” integrativ modelidir. Bu model o‘qituvchiga darsda bir-biriga o‘xshash ko‘rinadigan o‘yinlarni tanlash mezonini aniq belgilashga yordam beradi. Diagnostik komponentda o‘quvchining yoshga mos motor vazifalarni bajarish holati, qiziqishi, salomatlik cheklovlari va darsga qatnashish sharoiti aniqlanadi. Tanlash komponentida o‘yin motor maqsad va mashg‘ulot mavzusiga mos belgilanadi. Me’yorlash komponentida masofa, vaqt, qoidaning murakkabligi, faol urinishlar soni va tiklanish oralig‘i boshqariladi. Ijro jarayonida barcha o‘quvchilarning faol ishtiroki kuzatiladi; monitoring esa keyingi darsga individual tuzatish kiritadi.

Modelning markazida qayta aloqa mavjud: agar o‘quvchi vazifani ishonchli bajarsa, keyingi mashg‘ulotda murakkablik bosqichma-bosqich oshiriladi; qiynalsa, o‘yin sharti soddalashtiriladi, muvaffaqiyatli ishtirok uchun boshqa yo‘l taklif etiladi. Bunday moslashtirish harakat sifatiga ta’sir qiluvchi parametrlarni ochiq boshqarishga imkon beradi. Jismoniy tayyorgarlikning o‘sishi muntazam pedagogik kuzatish hamda ehtiyotkorlik bilan o‘tkazilgan takroriy motor sinovlari orqali aniqlanadi. Bolalarni “eng kuchli” va “eng zaif” yorliqlari bilan ajratish o‘rniga har bir qizning avvalgi ko‘rsatkichi bilan qiyoslash taklif qilinadi (2-jadval).

2-jadval: **Mualliflik modelida boshqaruv harakati va qayta aloqa**

Komponent	Pedagogik boshqaruv	Natijani tekshirish savoli
Diagnostika	Motor holat, qiziqish, salomatlik sharoiti	Qaysi sifat rivojlantiriladi?
Tanlash	Maqsadga mos o‘yin va inklyuziv qoida	O‘yin harakati mosmi?
Me’yorlash	Masofa, vaqt, urinish va dam	Yuklama har bir bola uchun mosmi?
O‘yinli ijro	Faol ishtirok, xavfsizlik, hamkorlik	Kim faol ishtirok etmoqda?
Monitoring	Kuzatuv, qayta sinov, tuzatish	Nimani o‘zgartiramiz?

Taklif etilayotgan sakkiz haftalik mikrotsikl boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya mavzulariga integratsiya qilinadigan namunadir. Dastlabki ikki hafta harakat vazifalarini o‘rganish va xavfsiz ijroga, uchinchi-to‘rtinchi haftalar tezlik hamda koordinatsiyani boshqarishga, beshinchi-oltinchi haftalar o‘yin variantlarini murakkablashtirishga, yakuniy ikki hafta takrorlash va sifatli baholashga qaratiladi. Bu ketma-ketlik biologik moslashuvni kafolatlaydigan qat’iy “me’yor” sifatida qabul qilinmaydi; dars soati, sinf hajmi va o‘quvchi imkoniyatiga mos o‘zgartiriladi (3-jadval).

3-jadval: **Harakatli o‘yinlarning sakkiz haftalik metodik mikrotsikli**

Hafta	O‘yinli faoliyatning asosiy yo‘nalishi	Monitoring va moslashtirish
1–2	Nishonga uloqtirish, signalga harakat, oddiy muvozanat	Boshlang‘ich kuzatuv, xavfsiz qoidaga moslashish
3–4	Burilishli quvlash, qisqa estafeta, juftlikda uzatish	Faol vaqt, aniqlik va texnikani qayd etish
5–6	Orolchalar, rangli yo‘lak, tanlovli jamoaviy o‘yin	Murakkablikni individual o‘zgartirish
7–8	Aralash motor stansiyalar, tanish o‘yinlarni takrorlash	Takroriy sinov, refleksiya va keyingi maqsad

Mashg‘ulotning metodik strukturasida tayyorlov, asosiy va yakunlovchi qismlar ajratiladi. Tayyorlovda yengil yurish-yugurish, bo‘g‘imlarni faollashtirish va xavfsizlik qoidalari eslatiladi. Asosiy qismda maqsadli jismoniy sifatga mos ikki yoki uch o‘yin kichik guruhlarda parallel tashkil etiladi. Yakunlovchi qismda harakat sur’ati pasaytiriladi, nafas tiklanishi va hissiy holat kuzatiladi. O‘quvchilar qisqa savolga javob beradi: “Qaysi vazifani aniqroq bajardim?” yoki “Keyingi safar qaysi qoidani o‘zgartirishim kerak?” Shunday refleksiya motor mashqni ongli o‘rganish bilan bog‘laydi.

O‘qituvchining yuklamani boshqarishida o‘yin davomiyligidan tashqari haqiqiy faol vaqt muhim. Har bir ishtirokchi qancha vaqt navbat kutgani, qay darajada harakat qilgani, mashq oxirida haddan tashqari toliqqani yoki qiynalgani kuzatiladi. Holatga mos qisqa dam, suv ichish imkoniyati va qulay haroratli maydon tashkil etiladi. Barcha bolalar uchun bir xil intensivlikni talab qilish o‘rniga harakat sur’atini tanlash, masofani qisqartirish, kichikroq to‘pdan foydalanish yoki sherik bilan bajarish kabi variantlar beriladi. Tibbiy holati bo‘yicha cheklov mavjud bolaga tegishli mutaxassis tavsiyasiga muvofiq alternativa belgilanadi.

An'anaviy takrorlash mashqlarida harakat sifati aniq ajratilishi mumkin, ammo qiziqish va faol ishtirokni uzluksiz saqlash uchun qo‘shimcha pedagogik yechim zarur bo‘ladi. Harakatli o‘yin aynan shu nuqtada harakat vazifasiga qaror qabul qilish, ijtimoiy muloqot va muvaffaqiyat tajribasini qo‘shadi. Biroq o‘yin yuklamasi yetarli bo‘lmasa yoki bolalarning ko‘pchiligi navbatda tursa, kutilgan tayyorgarlik samarasi kuzatilmasligi mumkin. Onarici Gungor va hammualliflar [4] hamda van Rossum va hammualliflarning [5] bir-biridan farqli natijalari aynan qaysi sifat nishonga olingani va qanday o‘lchangani muhimligini ko‘rsatadi.

Qiz bolalarning o‘yinlardagi ishtiroki uchun faqat tanish o‘yinlarni tanlash yetarli emas. Qizlarning shaxsiy qiziqishi, hamkorlikdagi xavfsizlik hissi, o‘z muvaffaqiyatini ko‘rish imkoniyati va o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi fikri faol qatnashishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, musobaqa qoidalari ayrim o‘quvchilarni ko‘p vaqt chetda qoldirishi mumkin. Bunga qarshi kichik maydonlar, parallel guruhlar, rotatsiya, yakka natijani jamoa maqsadiga qo‘shish va doimiy qayta kirish qoidasi taklif etiladi. Madaniy jihatdan yaqin milliy o‘yinlar foydalanishga qulay bo‘lsa-da, ular uchun ham bir xil pedagogik mezon - xavfsizlik, harakat sifati va faol bandlik - amal qiladi [9; 10].

Taklif etilgan model samaradorligini tekshirishda jismoniy tayyorgarlik, darsdagi ishtirok va motivatsiyani alohida o‘lchash lozim. Jismoniy sifat uchun yoshga mos, maktab sharoitida xavfsiz bajariladigan va bir xil protokol bilan takrorlanadigan amaliy vazifalar tanlanadi. Misol uchun, qisqa masofaga yugurish tezkorlik, belgilangan yo‘nalishni o‘zgartirish chaqqonlik, yengil to‘pni ushlash-uzatish koordinatsiya, bir oyoqda xavfsiz turish muvozanat bilan bog‘liq ma'lumot beradi. Biroq bularni rasmiy yosh me'yorlari yoki standartlashtirilgan tibbiy testlar o‘rnida ko‘rsatish mumkin emas. Sinovlar maktabning mavjud xavfsizlik talablari va tegishli mutaxassis nazoratiga moslashtiriladi (4-jadval).

4-jadval: **Jismoniy tayyorgarlik va pedagogik jarayonni baholash matritsasi**

Mezon	Kuzatiladigan ko‘rsatkich	Qayd qilish tartibi
Tezkorlik	Qisqa masofani bosib o‘tish vaqti	Bir xil masofa va tayyorlov
Chaqqonlik	Belgilangan yo‘nalishni o‘zgartirish	Bir xil marshrut va qayd
Koordinatsiya	To‘pni uzatish va tutish aniqligi	Bir xil to‘p va urinishlar
Muvozanat	Holatni xavfsiz saqlash	Bir xil tayanch va vaqt
Faol ishtirok	O‘yindagi bandlik va qatnashuv	Kuzatuv va faol vaqt qaydi

Tajriba-sinov dizaynida yosh va dastlabki tayyorgarligi yaqin sinflarni tajriba hamda nazorat guruhlariga ajratish, boshlang‘ich va yakuniy natijalarni bir xil sharoitda yig‘ish, dars soni hamda qo‘shimcha faollikni hisobga olish tavsiya qilinadi. Kuzatuv kamida sakkiz hafta davom etishi va imkon bo‘lsa, keyingi davrdagi saqlanish natijasini ham qamrashi mumkin. Tahlilda sinflarga birlashtirilgan ta'lim olishning statistik natijaga ta'siri, boshlang‘ich farqlar va tasodifiy omillar e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Tajriba-sinov uchun maktab ruxsati, ota-onaning xabardor roziligi, bolaning ixtiyoriy ishtiroki va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi zarur. Natijalarni baholashda tana vazni yoki tashqi qiyofani qiz bolaning qadr-qimmati va jismoniy qobiliyatiga baho sifatida ishlatish mumkin emas.

Mazkur maqolada taqdim etilgan model, o‘yinlar matritsasi va mikrotsikl manbalar tahlilidan kelib chiqqan metodik taklifdir. Hozircha ular muallif tomonidan o‘tkazilgan pedagogik tajribada sinalgan, degan da'vo ilgari surilmaydi. Manbalar turli mamlakat va yosh guruhlarini, dars ichidagi hamda qo‘shimcha mashg‘ulotlarni qamrab oladi; shu sababli ularning natijalari mahalliy 7–10 yoshli qizlarga avtomatik tatbiq etilmaydi. Keyingi izlanishlarda o‘yin qoidasi, harakat zichligi va o‘lchanadigan sifat orasidagi munosabatni nazorat qiladigan eksperiment, oila muhitining ta'siri hamda mashg‘ulot yakunidan keyingi saqlanish davri alohida o‘rganilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Harakatli o‘yinlardan jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish vositasi sifatida foydalanish o‘yinning nomi yoki emotsional jozibasi bilangina belgilanmaydi; ustuvor jismoniy sifat, harakat takrori, yuklama va individual moslashtirish mezonlari aniqlanishi kerak.

7–10 yoshli qizlarda chaqqonlik, tezkorlik, koordinatsiya, muvozanat va chidamlilikni rivojlantirish uchun o‘yin vazifalarini differensial darajalarda tashkil etish xavfsiz ishtirokni ta'minlovchi pedagogik shart sifatida asoslandi.

“Diagnostika – tanlash – me'yorlash – o‘yinli ijro – monitoring va moslashtirish” modeli harakatli o‘yinlarni rejalashtirish hamda keyingi dars mazmunini qayta ko‘rib chiqishning izchil mexanizmini taklif etadi.

Sakkiz haftalik mikrotsikl, o‘yinlar tasnifi va baholash matritsasi amaldagi dars dasturiga qo‘shimcha metodik element sifatida qo‘llanishi mumkin; ularning haqiqiy ta'siri tajriba-sinov orqali aniqlanadi.

Faol ishtirok, jismoniy tayyorgarlik va motivatsiya o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, bir xil ko‘rsatkich emas. Ilmiy xulosa chiqarishda har biri mos o‘lchash usuli bilan ajratib tekshirilishi zarur.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘yinlarni maqsadli sifatlar bo‘yicha bankka ajratishi, to‘siqsiz va parallel ishtirok sharoitini yaratishi, har bir o‘quvchining boshlang‘ich ko‘rsatkichiga nisbatan o‘sishini kuzatishi hamda haftalik yuklamani ehtiyotkorlik bilan moslashtirishi taklif etiladi. Maktab metodik birlashmalari o‘yinli mikrotsiklni pilot sinovdan o‘tkazib, natijalarga qarab qoida va baholash tartibini takomillashtirishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. 2026-yil 24-mart, O‘RQ–1123-son, 41-modda. URL: https://lex.uz/uz/docs/-8093787 (murojaat sanasi: 30.10.2026).
2. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: WHO, 2020. ISBN 978-92-4-001512-8. URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789240015128 (murojaat sanasi: 30.10.2026).
3. UNESCO. Quality Physical Education: Guidelines for Policy-Makers. Paris: UNESCO, 2015. URL: https://en.unesco.org/inclusivepolicylab/system/files/teams/document/2017/8/231101E_0_0_0_0_0.pdf (murojaat sanasi: 30.10.2026).
4. Onarici Gungor E., Yaliz Solmaz D., Guven G., Gurol B. A 12-week afterschool game-based physical activity program improves physical fitness of 9–10-year-old children: a randomized controlled study // Scientific Reports. 2025. Vol. 15. Article 44013. DOI: 10.1038/s41598-025-31429-9.
5. van Rossum T., Miller A., Rudd J. et al. The MOGBA randomized controlled trial: Evaluation of a complex movement skill intervention for 8–12 year old children in primary school Physical Education // PLOS ONE. 2025. Vol. 20, No. 7. e0327136. DOI: 10.1371/journal.pone.0327136.
6. Petrušič T., Novak D. A 16-week school-based intervention improves physical fitness in Slovenian children: a randomized controlled trial // Frontiers in Physiology. 2024. Vol. 15. Article 1311046. DOI: 10.3389/fphys.2024.1311046.
7. Breed R., Kay A., Spittle M., Orth D. The Effect of Pedagogical Approach on Physical Activity of Girls During Physical Education // Research Quarterly for Exercise and Sport. 2024. Vol. 95, No. 4. P. 824–833. DOI: 10.1080/02701367.2024.2329165.
8. Guijarro-Romero S., Mayorga-Vega D., Casado-Robles C., Viciana J. Effect of a gamified-based intermittent teaching unit in Physical Education on schoolchildren’s accelerometer-measured weekly physical activity: A cluster-randomized controlled trial. School-Fit study // Revista de Psicodidáctica. 2025. Vol. 30, No. 1. Article 500156. DOI: 10.1016/j.psicoe.2024.500156.
9. Yıkılgan A., Akkuş E., Alaeddinoğlu V. Geleneksel Çocuk Oyunlarının 10–12 Yaş Arası Kız Öğrencilerin Biyomotor Becerileri Üzerine Etkisi // Anatolia Sport Research. 2026. URL: https://www.anatoliasr.org/index.php/asr/article/view/250 (murojaat sanasi: 30.10.2026).
10. Dehqonova O.K., Hamdamov B.I., Ubaydullaev S., Ahmedov E.R. Teaching Primary School Children’s Through Uzbek Folk Traditional Games for Improving Their Gross Motor Skills // International Journal of Elementary Education. 2024. Vol. 13, No. 3. P. 62–77. DOI: 10.11648/j.ijeedu.20241303.13.
11. Sun S., Chen C. The Effect of Sports Game Intervention on Children’s Fundamental Motor Skills: A Systematic Review and Meta-Analysis // Children. 2024. Vol. 11, No. 2. Article 254. DOI: 10.3390/children11020254.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.